

Xorazm vohasining o‘rta va kuchli sho‘rlangan tuproqlarida silliq shirinmiya - (*Glycyrrhiza glabra* L.) ning bioekologik xususiyatlari va urug‘ mahsuldorligi

katta o‘qituvchi, b.f.f.d(PhD) Jumaniyozov Jalolbek Odilbekovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti

Annotatsiya: maqolada Xorazm viloyatida yetishtirilayotgan shirinmiya o‘simligining bioekologik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: shirinmiya, o‘simlik, ildiz, barg, biologik, ekologik, etishtirish.

Abstract: The article describes the bioecological features of the licorice plant grown in Khorezm region.

Key words: licorice, plant, root, leaf, biological, ecological, cultivation, weight, moisture, soil.

Mavzuning dolzarbligi. Ko‘pchilik olimlar tomonidan o‘rganilib ko‘rilgan dorivor o‘simliklarning 2500 dan ortig‘idan foydalanib kelinmoqda. Shu jumladan mamlakatimizda bugungi kunda ilmiy tibbiyotda dorivor o‘simliklarning 100 ga yaqinidan foydalanilmoqda.[1] Mamlakatimizda yovvoyi holda o‘sadigan o‘simliklarni yetishtirish, yig‘ish, tayyorlash va qayta ishlashni tizimli ravishda tashkil etishni yanada tartibga solish, silliq qizilmiyani xomashyo sifatida eksport qilishdan manfaatdor bo‘lgan tadbirkorlik subektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek tadbirkorlik subektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada erkinlashtirish maqsadida juda katta reja va tadbirlar amalga oshirilmoqda[2].

Respublikada so‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o‘simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy flora ga mansub 4300 dan ortiq o‘simliklarning 750 ga yaqin turi dorivor hisoblanib, ulardan 100 dan ortiq turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 ta turi farmatsevtika sanoatida faol qo‘llanib kelinmoqda. O‘rganishlar natijasida dorivor o‘simliklarni muhofaza

qilish, ularning plantatsiyalarini tashkil etish, qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish zarurligini ko'rsatmoqda[3].

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining 2020-yil 1-maydan boshlab dorivor o'simliklarni yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlarini (keyingi o'rinlarda – dorivor o'simliklar klasteri) tashkil etish, shuningdek, hududlarni dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirish to'g'risidagi takliflari ma'qullangan. Bunda, dorivor o'simliklardan, qizilmiya o'simligini (shirinmiya) (*Glycyrrhiza glabra* L.) ko'chatidan (qalamcha) o'rta sho'rlangan tuproqlar, tekislik yer maydonlariga mos, suvga talabchan, sho'r yerlarda o'sadigan o'simlik sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo, Xorazm viloyatlarining barcha tumanlarida yetishtirish nazarda tutilgan[4].

Tadqiqot maqsadi va uslublari. Tajribalarimizda Xorazm vohasi o'rtacha sho'rlangan yerlarda silliq shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra* L.) o'simligining bioekologik xususiyatlari o'rganishni maqsad qilib oldik.

Tadqiqotda dala tajribalari, fenologik, morfologik, biometrik va statistik usullar qo'llanilgan.

Tatqiqot natijalari va ularning tahlili. Tajribalar Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanida o'rta va kuchli sho'rlangan yerlarida o'tkazildi. Bunda silliq shirinmiyaning qalamchlari tayyorlanib oldindan tayyorlab qo'yilgan erga joylashtirilib chiqildi. Bu jarayon 2025-yil fevral oying oxirgi o'n kunligida amalga oshirildi. Qalamchalarning 10% mart oyining birinchi o'n kunligida kurtagi borta boshladi. Eng oxirgi qalamchalar esa aprel oyining birinchi o'n kunligiga to'g'ri keldi. Jami qalamchalarning 92% qismi to'liq kurtak hosil qildi, 7-8% qismi umuman kurtak hosil qilmadi. Dastlabki kurtaklardan aprel oyining boshida bargchalar hosil bo'la boshladi. Shiriniyaning gullashi may oyining to'g'ri keldi, iyul oyining oxiriga kelib esa mevalar hosil bo'ldi. O'simlikning mevasi ochilmaydigan dukkak meva. Dukkagi 2-6 urug'li. Uzunligi $1,8 \pm 0,16$ sm. Urug'i ko'kimtir, qoramtir-jigar rang.

Silliqliq shirinmiya - *Glycyrrhiza glabra* L 1000 ta urug'ining massasi 2,7-3,4 gr. Urug' mahsuldorligini hisoblab chiqdik va olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Ushbu tajriba Qo'shko'pir tumanida o'rta va kuchli sho'rlangan yerlarida o'rganildi.

Jadval - 1

SHo'rlanish	Olingan o'simliklar soni	Gullar soni	Hosil bo'lgan urug'lar soni	1000 urug' og'irligi (gr)	1 ta o'simlikdagi urug'lari (gr)	10 m ² maydonda		1 ga maydondan olinadigan urug'lar (kg)
						Tuplar soni	Urug' hosildorligi	
O'rtacha	10	432,5±3,5	250,5±4,5	3,4	0,488	108	48,42	48,42
Kuchli	10	311,5±6,5	142,5±2,5	2,7	0,282	76	21,37	21,37

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, shirinmiyada o'rtacha sho'rlangan tuproqli yerda o'rtacha bir tupdagi 432,5±3,5 ta guldand, 250,5±4,5 dona urug' hosil bo'ladi ya'ni bu 57,87% urug' boylashini anqlatadi. 10 m² maydonda o'rtacha 108 ta o'simlik uchraydi, undagi urug' hosildorligi 48,42 gramga teng ekanligi aniqlandi. Agar buni bir gektar maydonga hisob-kitob qilsak, 48,42 kg urug' olish mumkinligi ma'lum bo'ladi. Kuchli sho'rlangan tuproqli yerda esa o'rtacha bir tupda 311,5±6,5 ta gul, shundan 142,5±2,5 dona urug' hosil bo'ldi. Bu 45,51%ni tashkil qiladi. 10 m² maydonda o'rtacha 76 ta o'simlik uchrashini hisobga olsak, urug' hosildorligi 21,37 gr ga teng ekanligi kelib chiqadi. Agar buni bir gektar maydonga hisob-kitob qilsak, 21,37 kg urug' olish mumkinligi ma'lum bo'ladi. Har ikki sho'rlangan tuproqli erlarda gektaridan olinadigan bu urug' hosildorligi qizilmiyani katta maydonlarda ekish imkonini beradi. Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, 1ga maydonda real urug' hosildorligidan o'rtacha 5,5 kg urug' ekish optimal nihol olish imkonini beradi. Shu vaqt davomida tuproqda namlikni vegetatsiya davomida etishmasligi qizilmiya ildizi qalamchalar sonining

20 – 30% ga kamayib ketishiga olib keldi. Namlik 60-70% li muxitda esa hosildorlik oshgani aniqlandi.

Xulosa. Silliq shirinmiya Xorazm vohasining Qo‘shko‘pir tumanida o‘rtacha sho‘rli tuproqda ekilgan qalamchalardan 92%, kuchli sho‘rlangan yerda esa 65% o‘sib rivojlandi. Tuproqda namlikni vegetatsiya davomida etishmasligi qizilmiya ildizi qalamchalar sonining 20 – 30% ga kamayib ketishiga olib keldi. Namlik 60-70% li muxitda esa hosildorlik oshgan.

O‘rtacha sho‘rli tuproqda bir gektar maydonda 48,42 kg ni, kuchli sho‘rlangan tuproqli erda 21,37 kg urug‘ olish mumkinligi ma’lum bo‘ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xo‘jaev K. Dorivor Astragalus suversianus L. O‘simligining bioekologiyasi. Ekologiyaning hozirgi zamon muammolari va ularning yechimi. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Farg‘ona. 2017. 139-bet
2. H.X.Xolmatov, A.I.Qosimov – dorivor o‘simliklar Toshkent -1994
3. Urmanova M.N. Silliq shirinmiya ko‘chatlarini etishtirish.
“O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. № 8. -B.27-28 Toshkent, 2011.
(06.00.00. № 4).
4. Qo‘ziyev va boshq. 2005. " Glycyrrhiza glabra yordamida tashlandiq sho‘rlangan yerlarni qayta tiklash: Markaziy Osiyoning och dashtlaridan tadqiqot. "Qishloq xo‘jaligi barqarorligi” 3. 2: 102-113.